

INGLIZ TILIDAGI SLANG SO'ZLAR TAHLILI

Termiz davlat pedagogika instituti, tillar fakulteti

4-kurs talabasi **Mohinur Dustqobilova**

dustqobilovamohinur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi slangning mazmuniy va stilistik xususiyatlari, uning kelib chiqishi, tasnifi hamda ijtimoiy-madaniy rolga oid lingvistik tahlil beriladi. Slangning zamonaviy kommunikatsiyadagi o'рни, ommaviy madaniyat va ijtimoiy guruhlar ta'siri ko'rib chiqiladi. Slangning internet tili, ommaviy madaniyat va yoshlar submadaniyatida faol qo'llanilishi misollar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, slang so'zlarning lug'aviy innovatsiya sifatidagi roli misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Slang, leksikologiya, nutq madaniyati, ijtimoiy dialekt, yoshlar tili, jargon, semantika, internet tili, sotsiollingvistika, pragmatika, norasmiy uslub

Ingliz tili dunyo miqyosida xalqaro aloqa vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Tilning doimiy rivojlanib borishi uning lug'at tarkibida yangi birliklar shakllanishini taqozo etadi. Shular qatorida slang ham mavjud. Slang rasmiy bo'lmagan nutqda qo'llaniladigan, ma'no jihatidan obrazli, stilistik jihatdan pastroq leksik qatlam hisoblanadi. U ko'proq yoshlar, submadaniyat vakillari, media va internet orqali faol tarqaladi. Slang rasmiy bo'lmagan nutqning eng faol qatlamidir. Uning paydo bo'lishi va keng qo'llanilishi jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotidagi dinamik jarayonlarni aks ettiradi.

Slangni chuqur o'rganish bir necha sabablarga ko'ra muhimdir:

1. U jamiyatning madaniy va ijtimoiy jarayonlarini aks ettiradi.
2. Lug'aviy yangilanish va til kreativligini kuchaytiradi.
3. Zamonaviy kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.
4. Internet va raqamli kommunikatsiya.

1 . Slang tushunchasi va kelib chiqishi

Slang qadimli nutq shakllaridan bo‘lib, dastlab marginal guruhlar orfoepiyasida paydo bo‘lgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kino, musiqa, televideniye, internet kabi omillar sabab umumxalq leksikasiga kirib keldi. Slangga turli olimlar tomonidan berilgan ta’riflar mavjud:

Olim Ta’rifi

Dalzell (2015) Slang – ekspressiv, vaqtinchalik va norasmiy leksik birliklar tizimi

Trudgill (2000) Maxsus guruhlariga mansublikni bildiruvchi til shakli

Mattiello (2008) Leksik va semantik innovatsiyaning asosiy manbai

Tarixiy jihatdan slang XVIII–XIX asrlarda avvalo jinoyatchilar, ko‘cha odamlari va dengizchilar jargonida shakllangan. Keyinchalik ommaviy madaniyat kirib kelishi bilan umumxalq nutqiga o‘tgan.

Slangning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1.Rasmiy vaziyatda qo‘llanmaydi.
- 2.Ekspressivlik darajasi yuqori.
- 3.Ma’no tez o‘zgaradi, vaqtinchalik xarakterga ega.
- 4.Guruhga mansublik belgisini ifodalaydi.

Misollar:

Slang	Standart ma’no	Izoh
Cool	Excellent	Ijoboy ma’no
Dude man	Friend	Odatda erkaklarga nisbatan

Gona	Going to	Qisqartirilgan nutq birliklari
Lit	Very exciting	Yoshlar submadaniyati orqali kirgan

Slang quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Guruh Xususiyati Misollar

1.Yoshlar slaglari :Yoshlar orasida faolligi yuqori BFF (best friend forever), YOLO.

2.Internet slaglari:Onlayn muloqot uchun yaratilgan LOL, BTW, IDK

Jargonlar Kasbiy yoki submadaniy til Rap: “bars”, gaming: “noob”.

3.Vulgar slang: Qo‘pollik ifoda qiladi Ain’t, damn.

2. Slangning kommunikativ ahamiyati:

Slang nutqni erkinlashtiradi , muloqotni tezlashtiradi va suhbatdoshlar yaqinligini ifodalaydi.

Masalan:

“What’s up?” so‘rogi “Hello”ning norasmiy variantidir.

“Hang out” esa “bo‘sh vaqtni birga o‘tkazish” degan ma‘noni bildiradi.

Slang tadqiqotida lingvopragmatik yondashuv ham qo‘llanadi. Ya’ni, so‘z tanlash orqali nutq vaziyati va ijtimoiy maqom belgilanadi.

2.1. Ommaviy madaniyat va media ta’siri

Rap, hip-hop, kino va seriallar slangning keng tarqalishiga olib kelgan. Masalan, “OK, boomer” iborasi TikTok orqali global miqyosda ommalashdi. Disney, Marvel, Netflix kontentlarida ham slang kuchli qo‘llanadi.

XXI asr slangining asosiy manbai internet hisoblanadi. TikTok, Instagram, Twitter kabi platformalarda yangi slanglar bir necha kun ichida millionlab foydalanuvchilar orasida tarqalmoqda.

Ommaviy madaniyat misollari:

“OK, Boomer” – avlodlararo mem bo‘lgan frazeologik birlik

Rap submadaniyati: “bars”, “beef”

2.2. Slangdagi innovatsion jarayonlar

Slang leksik innovatsiyaning eng faol manbalaridan biri sifatida:

yangi so‘z yaratadi: “selfie”, “hangry” ma’no ko‘chishlarini yuzaga keltiradi, qisqartma shakllarni ko‘paytiradi.

Xulosa: Ingliz tilidagi slang so‘zlar zamonaviy lingvokultura va ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U nutqda erkinlik, kreativlik va aniqlikni kuchaytiradi. Slangni o‘rganish xorijiy til o‘rganuvchilari uchun muhim, chunki u real muloqotda keng uchraydi. Kelajakda internet texnologiyalari va global multimedia slangning yanada tez rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ingliz tilidagi slang so‘zlar leksik tizimning eng tez yangilanuvchi elementlaridan biri bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning lingvistik ko‘zgusi hisoblanadi. Slangning madaniy ta’siri sababli global tarqalishi semantik innovatsiyalar yaratish qobiliyati yoshlar tilidagi ustuvorligi uning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Slangni chuqur o‘rganish til o‘rganuvchilarning haqiqiy kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dalzell, T., Victor, T. The New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English. Routledge, 2015.

2. Allan, K., & Burridge, K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge University Press, 2006.
3. Chapman, R. Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions. McGraw-Hill, 2018.
4. Trudgill, P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. Penguin Books, 2000.
5. Chapman, R. Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions. McGraw-Hill, 2018.
6. Oxford Learner's Dictionaries – slang resources.
7. Cambridge Dictionary – online slang lexicon.